(2). Зацепина Е.А. Номинативное поле как объективация концепта. Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. 2007, № 1, 36–38 с.

(3). Гарипова Г.Р. Концепт «гостеприимства» в русском и английском языках. Дисс. …канд. филол. наук. Уфа, 2010, 226 с.

(4). Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Национально-культурная семантика русских фразеологизмов. Словари и лингвострановедение. М., 1982, с. 89 –98; Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). М., изд-во РУДН, 1997, 331 с; Залевская А.А. Слово в лексиконе человека. Психолингвистические исследования. Воронеж, изд-во ВГУ, 1990, 207 с; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты. Дискурс. М., "Гнозис", 2004, 390 с; Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. С-Пб., 1999, 288 с; Кубрякова Е.С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX в. Язык и наука конца 20 в. М., 1995, с. 173 – 189; Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. Русская словесность, Антология. М., "Academia", 1997, 196 с.

(5). O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 671-bet.

(6). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 591-bet.

(7). Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. Toshkent, "Ma'naviyat", 2013, 319-bet.

(8). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati. Toshkent, "Fan", 1964, 211-bet.

Qulmanova Mohinur Anvar qizi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti; E-mail: mohinurkulmanova@gmail.com; https://orcid.org/0009-0009-0390-3241)

RETROSPEKSIYA VA PROSPEKSIYANING MATN KATEGORIYALARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada matn tilshunosligining muhim masalalaridan biri retrospeksiya va prospeksiya kategoriyalarining matn kategoriyalari tizimidagi o'rni, turlari hamda vazifaviy-ma'noviy xususiyatlari yoritilgan. Bunda mazkur kategoriyalarning matn yaxlitligini ta'minlashdagi o'rni, turlari va ifoda vositalari ingliz hamda o'zbek badiiy asarlari misolida tahlilga tortilgan. Retrospeksiya va prospeksiya matnning zamoniy-tuzilmaviy qurilishini belgilovchi umumlisoniy kategoriyalar bo'lib, turli tuzilishdagi tillarda ularning ko'rinishi va ifoda yo'llarida ko'zga tashlanadigan farqlar mavjudligini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *matn kategoriyalari, retrospeksiya, prospeksiya, diskontinuum, temporal struktura, funksional-semantik tahlil, tipologik tasnif, badiiy matn.*

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕТРОСПЕКЦИИ И ПРОСПЕКЦИИ ТЕКСТОВЫХ КАТЕГОРИЙ

Аннотация. *В статье рассматривается одна из важных проблем лингвистики текста – место категорий ретроспекции и проспекции в системе текстовых категорий, их виды, а также функционально-семантические особенности. На материале английских и узбекских художественных произведений анализируются роль данных категорий в обеспечении целостности текста, их разновидности и средства выражения. Ретроспекция и проспекция рассматриваются как общеязыковые категории, определяющие временно-структурную организацию текста; выявляются различия в их проявлении и способах выражения в языках различного строя.*

Ключевые слова: *текстовые категории, ретроспекция, проспекция, дисконтинуум, темпоральная структура, функционально-семантический анализ, типологическая характеристика, художественный текст.*

FUNCTIONAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE TEXT CATEGORIES OF RETROSPECTION AND PROSPECTION

Annotation. *The article examines the role, types, and functional-semantic characteristics of the categories of retrospection and prospection—key issues in text linguistics—within the system of text categories. It analyzes the role of these categories in ensuring textual coherence, as well as their types and means of expression, using examples from English and Uzbek literary works. Retrospection and prospection are identified as universal linguistic categories that determine the temporal-structural organization of a text; the study highlights the observable differences in their manifestation and modes of expression across languages of varying structures.*

Keywords: *text categories, retrospection, prospection, discontinuum, temporal structure, functional-semantic analysis, typological classification, literary text.*

1. Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda matn lingvistikasi alohida paradigma sifatida shakllanib, uning markaziy muammolaridan biri matn kategoriyalarini aniqlash, tavsiflash va ularning o'zaro munosabatlarini tadqiq etishdan iboratdir. Bu borada I.R.Galperinning «Текст как объект лингвистического исследования» (1981) asari matn kategoriyalarini tizimli o'rganishning nazariy-metodologik asosini yaratdi [1]. Olimning tasnifida matnni tashkil etuvchi asosiy kategoriyalar sirasiga informativlik, kogeziya, kontinuum, diskontinuum, retrospeksiya, prospeksiya, modallik va integratsiya kiritiladi.

Ushbu kategoriyalar orasida *retrospeksiya va prospeksiya* alohida o'rin egallaydi, chunki ular matndagi temporal-faktual ma'lumotning bir xil yo'nalishda rivojlanishini buzib, o'quvchining diqqatini boshqa vaqt qatlamlariga yo'naltiradi. Retrospeksiya matnda oldingi voqea yoki holatga qaytishni, prospeksiya esa kelgusida sodir bo'ladigan voqea yoki holatni oldindan bildirishni ifodalaydi [2]. Bu ikki kategoriya matnning to'laqonli kommunikativ-estetik ta'sirini ta'minlovchi vositalar sifatida ayniqsa badiiy matnda faol qo'llaniladi.

Shunga qaramay, zamonaviy tilshunoslikda mazkur kategoriyalarning matn kategoriyalari paradigmasidagi aniq lingvistik maqomi, tipologik tasnifi hamda funksional-semantik xususiyatlari masalasi qator bahsli jihatlarga ega bo'lib qolmoqda. Bu muammoning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, retrospeksiya va prospeksiya bir qator tadqiqotlarda faqat temporal kategoriya sifatida talqin etilib, ularning kognitiv-pragmatik jihatlari yetarlicha yoritilmagan; ikkinchidan, mazkur kategoriyalar turli tizimli tillarda turlicha lisoniy vositalar orqali ifodalanishi qiyosiy-tipologik tadqiqotlarni taqozo etadi.

2. Adabiyotlar tahlili. Retrospeksiya va prospeksiyaning lingvistik kategoriya sifatida shakllanishi matn lingvistikasi sohasining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu sohada I.R.Galperinning 1980-yilda nashr etilgan «Ретроспекция и проспекция в тексте» nomli maqolasi hamda 1981-yilda chiqqan «Текст как объект лингвистического исследования» monografiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [1;2-b.]. Olim birinchilardan bo'lib mazkur ikki kategoriyani matnning mustaqil grammatik kategoriyalari sifatida ajratib ko'rsatdi.

Keyingi tadqiqotlarda mazkur kategoriyalar turli matn tiplari misolida o'rganildi. Xususan, D.D. Antipova ilmiy matnda retrospeksiya va prospeksiyaning funksiyalarini ingliz lingvistik adabiyoti materialida tadqiq etgan [3]. N.V.Bruskova nemis tilidagi badiiy matnlarda ushbu kategoriyalarning namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rgangan [4]. Y.A.Chigovskaya esa rus tilidagi ilmiy matnlarda retrospeksiya va prospeksiyaning ifoda vositalari hamda vazifalarini aniqlagan [5].

Adabiy-narrativ nuqtai nazardan bu hodisa ingliz tilshunosligi va narratologiyasida *analepsis (retrospeksiya) va prolepsis (prospeksiya)* atamalari ostida o'rganiladi. Fransuz narratologi J.Jenett «Narrative Discourse» asarida ushbu ikki tushunchaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, u retrospeksiya va prospeksiyaning ichki va tashqi turlarini farqlab ko'rsatgan [6]. M.Bal hamda S.Rimmon-Kenan kabi tadqiqotchilar mazkur konsepsiyani yanada rivojlantirdilar [7;8].

Matnni tashkil etishda kogeziya kategoriyasining o'rnini M.A.K.Hallidey va R.Hasan "Cohesion in English" asarida tizimli tarzda yoritganlar [9]. Ularning tadqiqotlari bevosita retrospeksiya va prospeksiyaga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, matn yaxlitligini ta'minlovchi vositalar sifatida havola (reference), ellipsis va boshqa aloqa usullarining o'rnini belgilashda muhim nazariy asos hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida retrospeksiya va prospeksiya kategoriyalari alohida tadqiqot obyekti sifatida deyarli o'rganilmagan. Biroq matn lingvistikasi doirasidagi M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn lingvopoetikasi" [10], D.Xudoyberganovaning "Matn lingvistikasi" [11] va Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" [12] asarlarida mazkur muammoning ayrim jihatlari qisman yoritilgan. Bu holat ushbu yo'nalishda maxsus qiyosiy-chog'ishtirma tadqiqotlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Retrospeksiya va prospeksiyaning matn kategoriyalari paradigmasidagi o'rnini belgilash uchun, avvalo, mazkur kategoriyalarning *kontinuum* va *diskontinuum* kategoriyalari bilan munosabatini aniqlash zarurdir. I.R.Galperinning ta'kidlashicha, kontinuum matndagi voqealarning vaqt va makondagi izchil, uzluksiz rivojlanishini, diskontinuum esa bu izchillikning buzilishini, uzluklilikni ifodalaydi [1].

Retrospeksiya va prospeksiya aynan diskontinuumning konkret shakllari hisoblanadi. Ular matn chiziqli rivojlanishiga "pauza" kiritib, o'quvchini boshqa vaqt qatlamlariga yo'naltiradi. Shu nuqtai nazardan, retrospeksiya va prospeksiya matnning *temporal-struktur kategoriyalari*ga kiradi, ya'ni, matndagi vaqt munosabatlarining buzilishi va qayta tiklanishi orqali matn yaxlitligini ta'minlovchi vositalar vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, retrospeksiya va prospeksiya *kogeziya* (matn bog'liqligi) va *integratsiya* (matn yaxlitligi) kategoriyalari bilan ham uzviy bog'liqdir. Ular matnda oldin bayon qilingan yoki keyinchalik bayon

qilinajak mazmunga havola qilish orqali matn qismlarini bog‘laydi va uning yagona mazmuniy-kompozitsion butunligini shakllantiradi.

Ayni paytda, retrospeksiya va prospeksiya nafaqat temporal, balki kognitiv-pragmatik kategoriyalar sifatida ham talqin etilishi mumkin. Chunki ular orqali muallif o‘quvchining diqqatini ma’lum voqea yoki holatga jalb etadi, uning tasavvurida matn dunyosini shakllantiradi va presuppozitsiya hamda implikatura kabi pragmatik hodisalarni yuzaga keltiradi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda mazkur kategoriyalarni funksional-semantik va kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylangan.

Retrospeksiya va prospeksiyaning tipologik tasnifi turli mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi mezon – ifodalanish usuliga ko‘ra, retrospeksiya va prospeksiya quyidagilarga bo‘linadi: *eksplitsit* – maxsus lisoniy vositalar (vaqt leksemalari, fe’l zamonlari, kirish so‘zlar) orqali ochiq ifodalangan turi; *implitsit* – matn konteksti, presuppozitsiya va o‘quvchining bilimiga tayanib yuzaga keladigan turi. I.R.Galperinning ta’kidlashicha, aksariyat matnlarda retrospeksiya implitsit shaklda namoyon bo‘ladi va bu uning asosiy xususiyatlaridan biridir [1].

Ikkinchi mezon – masofaga ko‘ra, retrospeksiya va prospeksiya quyidagi turlarga bo‘linadi: *kontaktli* (havola qilinayotgan ma’lumot matndagi hozirgi nuqtaga yaqin), *o‘rta masofali distant* (havola qilinayotgan ma’lumot sezilarli masofada) va *katta masofali distant* (havola matn doirasidan tashqariga chiqadi) turlari. Bu tasnifni T.I.Golubeva va N.V.Kudryashova kundalik matnlari misolida ishlab chiqqanlar [13].

Uchinchi mezon – J.Jenettning narratologik yondashuvi bo‘yicha *ichki (internal)* – asosiy hikoya chizig‘i doirasidagi retrospeksiya/prospeksiya; *tashqi (external)* – hikoya chizig‘idan tashqariga chiqadigan turi; *aralash (mixed)* – har ikki turni o‘z ichiga olgan [6].

To‘rtinchi mezon, vazifasiga ko‘ra, quyidagi turlar ajratiladi: *kompozitsion-integrativ* (matn qismlarini bog‘lash funksiyasi), *perspektiv-belgilovchi* (keyingi voqealarni oldindan belgilash funksiyasi) va *stilistik* (badiiy-estetik ta’sir funksiyasi) [13].

Beshinchi mezon subyektiga ko‘ra ajratiladi: *obyektiv-muallif* (muallif tomonidan sujetga qo‘shilgan) va *subyektiv-o‘quvchi* (o‘quvchining tasavvurida yuzaga keladigan) turlari [1]. Mazkur turli tasnif-lar bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi va retrospeksiya hamda prospeksiyaning ko‘p o‘lchovli hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Retrospeksiya va prospeksiyaning funksional-semantik xususiyatlarini badiiy matn misolida tahlil etish mazkur kategoriyalarning amalda qanday realizatsiya bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ch.Dikkensning “A Christmas Carol” asarida prospeksiyaning yorqin namunasi kuzatiladi: bosh qahramon Ebenezer Skruj “Ghost of Christmas Yet to Come” bilan uchrashib, o‘z kelajagini – o‘limini va atrofdagilarning bunga bo‘lgan munosabatini oldindan ko‘radi [14]. Bu holatda prospeksiya nafaqat syujet tuzilishining asosiy unsuri, balki personaj xarakterining o‘zgarishi uchun ham asosiy vosita vazifasini bajaradi.

E.Brontening “Wuthering Heights” asarida retrospeksiya keng qo‘llanilgan: hikoyaning asosiy qismi Nelli Din tomonidan Lokvudga o‘tmishdagi voqealar haqida aytib beriladi. Bu yerda retrospeksiyaning ifoda vositalari sifatida o‘tgan zamon fe’l shakllari (*Past Simple, Past Perfect*), vaqt ravishlari (*then, that day, years ago, long before*) hamda nutqni kirituvchi fe’llar (*she recalled, he remembered, as I recall*) faol qo‘llaniladi.

Zamonaviy ingliz adabiyotida K.Isiguroning “The Remains of the Day” romani retrospeksiyaning psixologik funksiyasini namoyish etadi: bosh qahramon Stivens o‘z o‘tmishini eslash orqali o‘zining shaxsiy va kasbiy hayotini qayta baholaydi. Bu holatda retrospeksiya personajning ichki monologida namoyon bo‘lib, uning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zining nomidan boshlab retrospeksiyaning semantik asosini belgilaydi. Romanda retrospeksiya orqali XIX asr o‘rtalaridagi Turkiston hayoti, uning ijtimoiy-madaniy muhiti tiklab ko‘rsatiladi. Bu yerda retrospeksiyaning ifoda vositalari sifatida *o‘tgan zamonlarda, bundan ko‘p yillar muqaddam, o‘sha paytda* kabi vaqt-ma’noli birliklar, shuningdek, fe’lning o‘tgan zamon shakllari (*bo‘lgan edi, kelgan edi*) qo‘llaniladi.

Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida retrospektiv segmentlar Yo‘lchining bolalik va yoshlik xotiralari orqali uning shaxsiyatining shakllanish yo‘lini ochib beradi. Bunda retrospeksiyaning psixologik-kompozitsion funksiyasi aniq namoyon bo‘ladi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida prospeksiyaning qiziqarli namunasini ko‘rish mumkin: muallif ma’lum hayotiy hodisalar orqali keyingi voqea haqida oldindan ishora beradi, bu esa o‘quvchida kutish va qiziqish hissini yuzaga keltiradi.

Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida retrospeksiya va prospeksiyaning namoyon bo‘lishida bir qator o‘xshash va farqli jihatlar mavjud. O‘xshashlik shundaki, har ikki tilda ham mazkur kategoriyalar matnning temporal-kompozitsion tuzilishini shakllantirish, personaj obrazini yaratish va pragmatik ta’sir o‘tkazish vazifalarini bajaradi.

Farqli jihatlar esa lisoniy ifoda vositalari darajasida yaqqol seziladi: ingliz tilida retrospeksiya asosan *fe’l zamonlari tizimi* (Past Perfect, Past Perfect Continuous) orqali ifodalansa, o‘zbek tilida *analitik va sintetik fe’l shakllari* (*-gan edi, -gan ekan, kelib edi*) hamda leksik markerlar birgalikda qo‘llaniladi. Prospeksiya esa ingliz tilida *will/shall, be going to, would* kabi modal va zamon shakllari orqali, o‘zbek tilida esa *-ajak, -ar, bo‘lajak, kelajak* kabi fe’l shakllari va *ertaga, keyin, keyinroq* kabi ravishlar vositasida ifodalanadi.

Muhokama. Olib borilgan tahlil natijalari retrospeksiya va prospeksiyaning matn kategoriyalari paradigmasida ikki yoqlama maqomga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bir tomondan, ular diskontinuumning konkret shakllari sifatida *temporal-struktur kategoriyalar* qatoriga kiradi; ikkinchi tomondan, kogeziya va integratsiyani ta’minlashda muhim o‘rin tutib, aloqa kategoriyalari funksiyasini bajaradi. Bundan tashqari, mazkur kategoriyalar pragmatik ta’sir o‘tkazish, muallif intensiyasini ro‘yobga chiqarish va badiiy obraz yaratishda faol ishtirok etib, funksional-pragmatik kategoriya sifatida ham talqin etilishi mumkin.

Retrospeksiya va prospeksiyaning tipologik tasnifi ko‘p o‘lchovli bo‘lib, u ifodalanish usuli, masofa, narrativ o‘rin, vazifa va subyekt kabi mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bu tasniflar turli matn tiplari va turli tillar uchun universal asos bo‘la oladi, biroq har bir tilning o‘ziga xos lisoniy-struktur xususiyatlaridan kelib chiqib, aniq modifikatsiyalarni taqozo etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillarida retrospeksiya va prospeksiyaning funksional-semantik xususiyatlari umumiy bo‘lsa-da, ularning lisoniy ifoda vositalari jiddiy tafovutlarga ega. Bu holat mazkur kategoriyalarni qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etishning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Xususan, badiiy tarjima amaliyotida retrospektiv va prospektiv segmentlarning pragmatik muvofiqligini saqlash masalasi maxsus o‘rganishni talab etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur kategoriyalar diskontinuumning aniq shakllari sifatida matnning temporal-struktur qurilishini belgilaydi, ammo ayni paytda kogeziya, integratsiya va modallik kabi kategoriyalar bilan uzviy aloqada bo‘lib, ko‘p funksional hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Retrospeksiya va prospeksiyaning tipologik tasnifi ifodalanish usuli, masofa, narrativ o‘rin, vazifa va subyekt mezonlari asosida amalga oshirilib, badiiy matnda kompozitsion, perspektiv-belgilovchi, psixologik va stilistik funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalar muallif intensiyasini ifodalash va o‘quvchiga pragmatik ta’sir o‘tkazishga xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida bu kategoriyalar umumiy vazifalarga ega bo‘lib, lisoniy ifoda vositalarida til tipologiyasidan kelib chiquvchi tafovutlarga ega. Bu hol mazkur kategoriyalarni qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etishning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. 1981, 139 с.

(2). Гальперин И.Р. Ретроспекция и проспекция в тексте. № 5, с. 44–52.

(3). Антипова Д.Д. Категории ретроспекции и проспекции в научном тексте. Москва, 1988, 245 с.

(4). Брускова Н.В. Категории ретроспекции и проспекции в художественном тексте. Москва, 1983.

(5). Чиговская Я.А. Категории ретроспекции и проспекции в русских научных текстах. Перм, 2001, 22 с.

(6). Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. Transl. by J.E.Lewin. Ithaca: Cornell University Press, 1980, 285 p.

(7). Bal M. Narratology: Introduction to the Theory of Narrative. Toronto, University of Toronto Press, 1997, 254 p.

(8). Rimmon-Kenan S. Narrative Fiction: Contemporary Poetics. London: Routledge, 2002, 192 p.

(9). Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. London, Longman, 1976, 374 p.

(10). Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, “Fan”, 2008, 160-bet.

(11). Xudoyberganova D. Matn lingvistikasi. Toshkent, “Turon-Iqbol”, 2013, 168-bet.

(12). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 320-bet.

(13). Голубева Т.И., Кудряшова Н.В. Golubeva T.I., Kudryashova N.V. Ретроспекция и проспекция – важные составляющие темпоральной структуры текстов дневников\ филология и литературоведение. 2017, № 1.